



O'ZBEKISTONDA BYUDJET TASHKILOTLARI UCHUN ELEKTRON DO'KON ORQALI DAVLAT XARIDLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI VA IQTISODIY TEJASH IMKONIYATLARI

Turabov Sarvar Abdumalikovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0005-6133-0008
sarvarbobur0210@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari uchun davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali boshqarishning samaradorligini va iqtisodiy afzalliklarini o'rganishga qaratilgan. O'zbekistonda davlat xaridlari jarayonlarini elektronlashtirishning asosiy maqsadlari – korrupsiyani kamaytirish, byudjet mablag'laridan tejamkor foydalanish va xarid jarayonining shaffofligini ta'minlashdir. 2021-yil 22-aprelda O'RQ-684-sonli qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun hamda 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror orqali davlat xaridlarini elektron do'konlar yordamida amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi va iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'lida katta qadamlar qo'yildi. Davlat xaridlarida elektron do'konlarning qo'llanishi O'zbekiston iqtisodiyotida qanday o'zgarishlarga olib kelgani haqida batafsil tahlil keltiriladi. Bu jarayonda Indoneziya, Qozog'iston va Estoniya kabi mamlakatlarning tajribalari, shuningdek, ularning elektron xarid tizimlarining O'zbekistondagi davlat xaridlarida qo'llanilishi o'rganiladi. Ushbu tadqiqot 2022-2024-yillar davomida elektron do'konlar orqali amalga oshirilgan davlat xaridlari natijalari asosida olib borilgan bo'lib, davlat mablag'laridan samarali foydalanish va tejash imkoniyatlari bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, davlat xaridlari, elektron do'konlar, iqtisodiy samaradorlik, korrupsiyani kamaytirish, byudjet tejash, xalqaro tajriba, elektron xaridlar, davlat buyurtmalari.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ВОЗМОЖНОСТИ ЭКОНОМИИ ПРИ УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ЗАКУПКАМИ ДЛЯ БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ ЧЕРЕЗ ЭЛЕКТРОННЫЕ МАГАЗИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Турабов Сарвар Абдумаликович
Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. Данная статья посвящена изучению эффективности и экономических преимуществ управления государственными закупками для бюджетных организаций Республики Узбекистан через электронные магазины. Основными целями цифровизации процессов государственных закупок в Узбекистане являются снижение коррупции, рациональное использование бюджетных средств и повышение прозрачности в процессе закупок. Закон «О государственных закупках» (O'RQ-684), принятый 22 апреля 2021 года, и Постановление «О мерах по совершенствованию системы государственных закупок и стимулированию участия субъектов малого бизнеса» (PQ-249), изданное 10 июля 2024 года, создали новые возможности для проведения государственных закупок через электронные магазины, что стало значительным шагом на пути к экономической эффективности.

В статье представлен детальный анализ влияния использования электронных магазинов в государственных закупках на экономику Узбекистана, с опорой на опыт таких стран, как Индонезия, Казахстан и Эстония. Исследование, основанное на результатах государственных закупок через электронные магазины в период с 2022 по 2024 год, раскрывает важные данные о возможности эффективного использования средств и экономии бюджета.

Ключевые слова: Узбекистан, государственные закупки, электронные магазины, экономическая эффективность, снижение коррупции, экономия бюджета, международный опыт, электронные закупки, государственные заказы.

THE EFFICIENCY AND COST-SAVING POTENTIAL OF MANAGING PUBLIC PROCUREMENT FOR BUDGET ORGANIZATIONS THROUGH ELECTRONIC STORES IN UZBEKISTAN

Turabov Sarvar Abdumalikovich

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This article focuses on examining the efficiency and economic benefits of managing public procurement for budget organizations in the Republic of Uzbekistan through electronic stores. The primary objectives of digitizing public procurement processes in Uzbekistan are to reduce corruption, ensure cost-effective use of budget funds, and increase transparency in the procurement process. The Law on Public Procurement (O'RQ-684), adopted on April 22, 2021, and the Resolution on Measures for Improving the Public Procurement System and Promoting Small Business Participation (PQ-249), issued on July 10, 2024, have established new opportunities for conducting public procurements through electronic stores, marking significant steps toward economic efficiency. This article provides a detailed analysis of the impacts of using electronic stores in public procurement on Uzbekistan's economy, drawing comparisons with the experiences of countries like Indonesia, Kazakhstan, and Estonia. The study, based on public procurement outcomes via electronic stores from 2022 to 2024, reveals valuable insights into effective fund utilization and potential savings.

Keywords: Uzbekistan, public procurement, electronic stores, economic efficiency, corruption reduction, budget savings, international experience, e-procurement, government contracts.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini elektron tizimlar orqali boshqarish so'nggi yillarda byudjet mablag'larini samarali boshqarish, korrupsiyani kamaytirish va davlat buyurtmalarini shaffof o'tkazishga qaratilgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2021-yilda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun (O'RQ-684) davlat xaridlarini elektron shaklda amalga oshirish, narxlarni pasaytirish uchun elektron auksionlardan foydalanish va davlat xaridlarini ochiq va raqobatli qilishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan (Qonun, 2021). Mazkur qonunning kuchga kirishi davlat xaridlarini raqamlashtirish orqali mamlakat iqtisodiyoti uchun sezilarli tejash imkoniyatlarini yaratdi.

2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilingan qaror esa davlat xaridlarida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish va xarid jarayonlarini elektron tizimlar orqali shaffof amalga oshirishga alohida urg'u beradi. Ushbu qaror davlat xaridlarini yanada samarali qilishga va raqobatni oshirishga ko'maklashib, xarid jarayonlarida davlat mablag'larini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi (Qaror, 2024). O'zbekistonning davlat xaridlari sohasida bu kabi raqamli yondashuvlarni kengaytirishi xalqaro tajribaga hamohang bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida sezilarli darajada mablag' tejalishini ta'minlaydi.

Indoneziya, Qozog'iston va Estoniya davlat xaridlarining raqamli tizimlarini joriy etish orqali davlat mablag'larini tejash va samaradorlikni oshirish bo'yicha yirik islohotlarni amalga oshirgan davlatlardan hisoblanadi. Indoneziya hukumati tomonidan joriy etilgan "e-Procurement" tizimi davlat xaridlarida shaffoflikni oshirib, xarajatlarni kamaytirishga erishgan. Bu tizim orqali raqobatbardoshlik kuchayib, xarid jarayonidagi byurokratiya sezilarli darajada qisqartirilgan va davlat mablag'lari samarali boshqarilgan (Handoko va boshqa, 2018).

Qozog'iston esa 2019-yilda "Electronic Government Procurement" (EGP) tizimini joriy qilgan bo'lib, davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish va narxlarni pasaytirish maqsadida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi (Baktybekov va boshqa, 2020). Ushbu islohotlar Qozog'istonda davlat xarajatlarini qisqartirish va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Estoniya xalqaro miqyosda raqamli davlat xaridlari tizimini joriy qilishda yetakchi davlatlardan biri bo'lib, 2000-yillardan boshlab davlat xaridlarini to'liq elektron shaklda boshqarishga o'tgan (Vassil, 2015). Estoniya tajribasi davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, korrupsiyani kamaytirish va davlat xarajatlarining samaradorligini ta'minlashda yuqori natijalarga erishgan. Yuqoridagi xalqaro tajribalar va O'zbekistonning so'nggi qonunchilik islohotlari asosida ushbu maqolada byudjet tashkilotlari uchun elektron do'konlar orqali amalga oshirilayotgan davlat xaridlari samaradorligini oshirish va iqtisodiy tejash imkoniyatlarini tahlil qilishga e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Davlat xaridlarini raqamlashtirish, shaffoflikni oshirish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning ilmiy asoslari, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali amalga oshirish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun va qarorlarga, shuningdek, xalqaro tajribaga asoslangan. O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun (O'RQ-684) davlat xaridlarini elektron do'kon va aukcion tizimlari orqali amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash bilan birga, korrupsiyani kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashni maqsad qilgan. Ushbu normativ hujjatlar davlat xaridlarini yana-da raqobatbardosh va tejamkor shaklga keltirishga qaratilgan bo'lib, davlat xarajatlarini optimallashtirishga ko'maklashadi (Qonun, 2021).

Indoneziya, Qozog'iston va Estoniyadagi elektron xarid tizimlari ushbu yo'nalishda katta yutuqlarga erishgan. Indoneziya e-Procurement tizimi orqali davlat xaridlarida shaffoflik va samaradorlikni oshirib, korrupsiya xavfini kamaytirishga erishgan bo'lsa, Qozog'istonning Elektronis Government Procurement (EGP) tizimi davlat xarajatlarini kamaytirishga va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga imkon yaratdi. Estoniya esa xalqaro miqyosda davlat xaridlarini to'liq raqamli shaklda amalga oshirishni yo'lga qo'ygan yetakchi davlatlardan biri bo'lib, uning tajribasi davlat xaridlarida ochiqlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Ilmiy tadqiqotlar ham davlat xaridlarida elektron tizimlarning afzalliklarini ta'kidlaydi. Masalan, Handoko va boshqalar (2018) Indoneziya tajribasi asosida elektron davlat xaridlarining shaffoflik va xarajatlarni kamaytirishga qo'shgan hissasini ochib bergan. Shuningdek, Baktybekov va Zhumashova (2020) Qozog'iston tajribasini o'rganib, davlat xaridlarida samaradorlikni oshirishda elektron tizimlarning ahamiyatini ko'rsatgan. Jahon banki (2017) tomonidan nashr etilgan "Digital Government Toolkit" hisobotida ham davlat xaridlarini raqamlashtirish orqali byudjet samaradorligini oshirishga erishish muhimligi ta'kidlangan.

Rus olimi Andreeva (2009) davlat xaridlarining huquqiy masalalarini o'rganishda "davlat ehtiyojlari"ni mustaqil ma'noga ega bo'lgan huquqiy tushuncha sifatida alohida ajratib ko'rsatdi. Bunda byudjet buyurtmachilarining vakolati doirasida tegishli funktsiya va vazifalarni

amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan davlat ehtiyojlarining tarkibiga tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar kiradi deb ta'kidlangan.

Davlat xaridlarining nazariy asoslari uzoq xorij mamlakatlari olimlaridan Frayberg, Etse, Makmurray, Muenjonlarning (2021) tadqiqotlarida tadqiq etilgan bo'lib, ular o'z tadqiqotlarida davlat buyurtmasi, barqaror davlat xaridlari hamda mamlakatning barqaror rivojlanish natijalariga erishishning yakuniy maqsadi bilan tovar va xizmatlar hamda davlat sektorida ishlarni sotib olish jarayonini bilan o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasining 2022-2024-yillarda davlat xaridlari doirasida o'tkazilgan elektron auksionlar va elektron do'konlar faoliyati haqidagi choraklik hisobotlari asosida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligi va tejamkorlik imkoniyatlari tahlil qilindi. Birja savdolari, elektron auksionlar va byudjet buyurtmachilarning elektron do'konlari ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar to'plandi va ushbu xaridlar jarayonida erishilgan tejash foizlari, o'rtacha bitim baholari hamda xarid hajmidagi o'zgarishlar orqali elektron xaridlarning umumiy samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar davlat byudjet mablag'laridan samarali foydalanish va tejash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. 2022-2024-yillarda elektron do'konlar orqali amalga oshirilgan xaridlar natijasida davlat xaridlarining samaradorligi ortgan va xarid jarayonlari yanada raqobatbardosh va tejamkor shaklga keltirilgan. Quyida har chorakda elektron do'konlar orqali amalga oshirilgan xaridlar hajmi, tejalgan mablag' va tejash foizlari keltirilgan.

1-jadval

2022-2024-yillarda elektron do'kon orqali davlat xaridlari ko'rsatkichlari

| Yil | Chorak | Xarid hajmi (mlrd. so'm) | Tejash miqdori (mlrd. so'm) | Tejash foizi (%) | O'rtacha bitim narxi (ming so'm) |
|------|----------|--------------------------|-----------------------------|------------------|----------------------------------|
| 2022 | 1-chorak | 599,3 | 129,0 | 17,7 | 8 390,1 |
| | 2-chorak | 778,6 | 305,3 | 28,2 | 6 539,4 |
| | 3-chorak | 1 241,6 | 474,5 | 20,8 | 7 279,4 |
| | 4-chorak | 1 826,0 | 948,4 | 28,5 | 7 641,9 |
| 2023 | 1-chorak | 2 380,8 | 948,4 | 28,5 | 7 641,9 |
| | 2-chorak | 3 007,3 | 919,0 | 23,4 | 7 281,6 |
| | 3-chorak | 4 125,8 | 1 661,4 | 28,7 | 8 330,3 |
| | 4-chorak | 2 380,8 | 1 047,2 | 28,5 | 8 273,4 |
| 2024 | 1-chorak | 2 628,3 | 1 047,2 | 28,5 | 8 273,4 |
| | 2-chorak | 4 253,1 | 1 737,8 | 29,0 | 8 177,6 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasining 2022-2024-yillar hisoboti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali amalga oshirish natijasida har yili va chorakda xarid hajmi, tejash miqdori va tejash foizlari sezilarli darajada ortib borgan. 2022-yilda elektron do'kon orqali amalga oshirilgan xarid hajmi o'sib, yil davomida xaridlar hajmi 599,3 milliard so'mdan 1 826,0 milliard so'mga yetgan. Natijada, bu

davrda tejalgan mablag' umumiy xarid qiymatining 17,7% dan 28,5% gacha ko'tarilib, xaridlar davlat byudjetiga sezilarli tejash imkonini yaratgan.

2023-yilda xarid hajmining davomiy o'sishi kuzatilib, 1-chorakdagi 2 380,8 milliard so'mlik xarid hajmi 3-chorakda 4 125,8 milliard so'mga yetgan. Bu davrda umumiy tejash foizi 28,7% ga yetib, davlat byudjetiga sezilarli iqtisodiy samara olib keldi. O'rtacha bitim narxi ham ortib borishi xaridlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlagan.

2024-yilning 2-choragiga kelib, xarid hajmi 4 253,1 milliard so'mga yetib, bu davrda tejalgan mablag' boshlang'ich narxga nisbatan 29,0% ga teng bo'ldi. Elektron do'konlar orqali amalga oshirilgan xaridlar jarayonida xarajatlarning sezilarli qismini tejashga erishilgan va o'rtacha bitim narxi 8 177,6 ming so'mni tashkil qilgan. Bunday ko'rsatkichlar davlat xaridlarining samaradorligini oshirishda elektron do'konlar orqali olib borilgan xaridlar yuqori darajada tejamkor bo'lganini ko'rsatadi. Davlat xaridlarining elektron do'kon orqali amalga oshirilishi davlat byudjet mablag'larining samarali boshqarilishi, shaffoflikni ta'minlashi va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilgani, shu bilan birga xalqaro standartlarga mos keladigan iqtisodiy natijalarga erishishni ta'minlagan.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotida shaffoflik, raqobatbardoshlik va tejamkorlikni oshirishda katta o'zgarishlar keltirdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2022-2024-yillarda elektron do'kon orqali amalga oshirilgan xaridlar byudjet mablag'larini tejash imkonini yaratgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar yildan-yilga o'sib borgan. Har chorakda qayd etilgan tejash foizining yuqori ko'rsatkichlari davlat xaridlarida elektron platformalar orqali narxlarni pasaytirish va ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish borasida katta yutuqlarga erishilganini tasdiqlaydi.

Elektron do'konlar orqali amalga oshiriladigan xaridlar jarayonida davlat byudjetidan mablag'lar samarali sarflanib, xaridlar narxini boshlang'ich bahoga nisbatan pasaytirishga imkon beradi. Xususan, 2023-yilning 3-choragida o'rtacha tejash foizi 28,7% ga yetgan bo'lib, bu davrda xarid hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Bu esa davlat buyurtmalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, narxlarni optimallashtirish va yuqori tejashga erishish imkonini yaratadi. 2024-yilning 2-choragida esa o'rtacha tejash foizi 29% ga yetib, davlat xaridlari samaradorligida yangi yuksaklikka erishilgan. Ushbu ko'rsatkichlar davlat mablag'larini tejamkorlik bilan ishlatishda elektron do'konlarning samarali platforma sifatida faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlansa, Indoneziya va Qozog'iston kabi davlatlar ham davlat xaridlarida elektron platformalardan keng foydalanib, mablag'larni tejash va shaffoflikni oshirishda muhim natijalarga erishganlar. O'zbekiston elektron do'konlarini keng joriy qilish orqali raqamlashtirishning ijobiy ta'sirini yana-da kuchaytirib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirmoqda. Estoniyadagi to'liq raqamli xarid tizimlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda elektron do'konlar va auksionlar birgalikda ishlatilib, davlat xaridlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va narxlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali amalga oshirish kelgusida mamlakatda davlat byudjet mablag'larini yanada samarali boshqarish va bu jarayonda xalqaro amaliyotga tayangan holda texnologik yechimlarni kengaytirish imkonini beradi. Shu sababli, elektron do'konlardan foydalanishni kengaytirish va ularning texnologik imkoniyatlarini rivojlantirish davlat xaridlarini boshqarishda yangi yuksaklikka erishish, davlat mablag'larini tejamkor ishlatish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini elektron do'konlar orqali amalga oshirish samaradorligini oshirish va davlat byudjetidan mablag'larni tejamkor foydalanish imkonini berdi. 2022-2024-yillar davomida elektron do'konlar orqali amalga oshirilgan xaridlar natijasida xarid jarayonlari ochiqligi va shaffofligi ta'minlandi, bu esa korrupsiyani kamaytirish,

raqobatni oshirish va narxlarni optimallashtirishda ijobiy natijalar ko'rsatdi. Har chorakda o'rtacha tejash foizining yuqori bo'lishi elektron do'konlar orqali davlat xaridlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini yanada mustahkamladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, davlat xaridlari jarayonida elektron tizimlardan foydalanish davlat byudjet mablag'larining tejashiga sezilarli hissa qo'shib, xarajatlarni oqilona boshqarishga imkon beradi.

Elektron do'konlardan foydalanishning xalqaro tajribasi, jumladan, Janubiy Koreya, Estoniya va Indoneziyada qo'llanilayotgan ilg'or amaliyotlar O'zbekiston uchun namunali bo'lib, ularning ko'pchiligi O'zbekiston sharoitida joriy qilindi. Shu bilan birga, elektron do'konlar orqali davlat xaridlarini amalga oshirishning samaradorligi yuqori bo'lsa-da, bu tizimni rivojlantirish va yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur.

1. Elektron do'konlar platformasini yanada takomillashtirish: Davlat xaridlarining barcha bosqichlarini to'liq raqamli shaklda boshqarish uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Bu, ayniqsa, xarid jarayonining shaffofligi va monitoringi uchun muhimdir. Buning uchun platformani rivojlantirish va innovatsion vositalarni joriy etish kerak, masalan, sun'iy intellekt yordamida xarid jarayonini optimallashtirish va potensial korrupsion xavf omillarini oldindan aniqlash.

2. Korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish: Elektron xarid tizimlarining shaffofligini oshirish uchun ochiq auksionlar va tendersiz xarid jarayonlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Davlat xaridlarida ishtirok etuvchi tashkilotlarning o'zaro raqobatini oshirish orqali narxlarni kamaytirishga yordam beradigan sharoit yaratish, shuningdek, davlat xaridlarini nazorat qiluvchi mustaqil komissiyalarni faolroq jalb qilish tavsiya etiladi.

3. Xalqaro tajribalarni o'rganish va tatbiq qilish: Janubiy Koreyaning KONEPS va Estoniyaning to'liq raqamli xarid tizimlari O'zbekiston uchun foydali namuna bo'lib, ushbu tizimlardan foydalanish orqali davlat xaridlarining yanada shaffof va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash mumkin. Shu asosda elektron xarid tizimlarini kengaytirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

4. Davlat xaridlari xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish: Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi xodimlarning malakasini oshirish va ularni elektron do'konlardan samarali foydalanishga o'rgatish bo'yicha doimiy treninglar tashkil qilish lozim. Bu jarayon davlat xaridlarida ishlatilayotgan platformalarning yanada samarali va xatolardan xoli bo'lishiga xizmat qiladi.

5. Elektron do'konlardan kichik va o'rta biznes foydalanuvchilarini jalb qilish: Davlat xaridlariga kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish imkoniyatlarini oshirish kerak. Elektron do'konlardan foydalanishda bizneslar uchun qulay sharoitlar yaratish, davlat xaridlarida ularga qulay raqobat muhitini ta'minlash orqali mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladigan yechimlar ishlab chiqilishi zarur.

6. Platformani kuzatish va tahlil qilish tizimini joriy etish: Elektron do'konlarda amalga oshirilgan xaridlarni tahlil qilish uchun maxsus kuzatuv va baholash tizimini joriy qilish, bu orqali xarid jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish kerak. Platforma natijalarini baholash orqali kelajakdagi islohotlarni takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Elektron do'konlardan foydalanishni kengaytirish va samaradorligini oshirish orqali davlat xaridlarida raqamli islohotlarni rivojlantirish kelajakda O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va davlat xaridlarini yanada shaffof qilishga xizmat qiladi. Bu tizimni yanada takomillashtirish orqali davlat xaridlarini boshqarish samaradorligini oshirish va davlat byudjet mablag'larini tejamkor ishlatishga katta hissa qo'shish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/ Jumepamyra/ Reference:

Andreeva L.V. (2009) Zakupki tovarov dlya federal'nix gosudarstvennix nujd: pravovoe regulirovanie. M.: Volters Kluver, S. 24.

Baktybekov, A., & Zhumashova, Z. (2020). "Electronic Government Procurement (EGP) and Budget Efficiency in Kazakhstan." *Central Asian Economic Review*, 2, 140-155.

Frayberg T.V. (2021) Gosudarstvenniy (munitsipal'nyy) zakaz kak forma organizatsii byudjetnogo finansirovaniya: Dis. kand. ek. nauk: 08.00.10. Irkusk, 2006. S. 66.; Daniel Etse, Adela McMurray, Nuttawuth Muenjohn Comparing sustainable public procurement in the education and health sectors. // *Journal of Cleaner Production* 279 (2021) 123959

Handoko, V., Nasution, R., & Natasya, S. (2018). "e-Procurement's Role in Public Procurement Transparency: The Case of Indonesia." *Journal of Public Procurement*, 18(2), 200-215.

Korea Public Procurement Service. (2019). "KONEPS: The Republic of Korea's e-Procurement System." *Government Procurement Annual Report*, 27-39.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Davlat xaridlari jarayonlarini optimallashtirish va kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini kengaytirish to'g'risida" PQ-249-sonli qaror. 10-iyul, 2024.

Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun, O'RQ-684. 22-aprel, 2021.

Vassil, K. (2015). "The Estonian e-Government Success Story: How to Keep Transparency and Efficiency in Public Procurement." *Public Administration Review*, 75(4), 521-529.

World Bank. (2017). *Digital Government Toolkit: Leveraging e-Procurement for Fiscal Efficiency and Transparency*. World Bank Publications.